

DUNYODA KAM UCHRAYDIGAN INSONLAR O'RTASIDAGI ENG OG'IR KASALLIKLARNING TURLARI VA KELIB CHIQUISH SABABLARI

Isroilova Sarvinoz Bahodir qizi

Andijon davlat chet tillar instituti talabasi

Xomidova Malohat Oktyabrjon qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada dunyodagi kam uchraydigan, og'ir jarayonlardan iborat kasalliklar haqida ma'lumot beriladi: kuru, progeriya, morgellons kasalliklarning tarixi ular ortasida olib borilgan tadqiqotlar, ularning kelib chiqishi va davosi haqida firlar yuritiladi. Shu kasalliklarni o'rgangan olimlar haqida ma'lumotlar ham taqdim etiladi.

Kalit so'zlar: genetik kasallik, tez qarish, fizik o'zgarishlar, qisqa boy, davolash, oziqlanish, o'lim, prion kasalligi, to'qima, shikastlanishi, qichish, infektsiya.

Annotation: This article provides information about rare and severe diseases in the world: Kuru, Progeria, Morgellons, this history of the diseases, the research conducted among them, their origin and treatment. Information about the scientists who discovered these diseases is also provided.

Key words: genetic disease, rapid aging, physical changes, short stature, treatment, symptoms, nervous system, nutrition, death, prion disease, tissue damage, itching, infection.

Аннотация: В статье представлены сведения о редких и тяжелых заболеваниях в мире: Куру, прогерии, моргеллоны, история возникновения болезней, проведения, их происхождение и лечение.

Ключевые слова: генетическое заболевание, быстрое старение, физические изменения, низкий рост, симптомы, нервная система, , смерть, прионовая болезнь, поражение тканей, зуд, инфекция.

Dunyoda biz yashar ekanmiz har qanday holatlarga, turli xil kasalliklarga guvoh bo'lamiz. Har kuni dunyodagi ayrim aholilarda hali uchramagan, davosi topilmagan, og'ir kasalliklar uchramoqda. Bunday kasalliklar ko'pincha chet bel davlatlarda kuzatilmoqda, buning sababi tozalikga rioya qilinmagan va albatta sog'lom ovqatlanishga rioya qilinmaganidan, deb tushunaman, chunki ayrim hollarda bu kasalliklarga chalingan odamlarning qon tashxisi tekshirilganda, ulardan virus va turli xil iflos bakterialar aniqlanmoqda. Bu kasalliklarga boshqa yo'l bilan ham chalinish mumkin masalan; genetik omillar orqali: ba'zi kasalliklar irsiy bo'lib, o'ta-onadan bolaga o'tadi. Immun tizimining zaiflashishi: immune tizimi zaiflashganida, organizmni

himoya qilish qiyinlashadi .Eng og`ir va kam uchraydigan kasalliklardan bular: morgellons,progeriya, kuru

Morgellon kasalligining tabiati, uning yuqumli,ekologik yoki psixiatrik ekanligi haqida ko`p bahs-munozaralar mavjud. Tadqiqotchilar kasallik va Lyme kasalligi o`rtasida bog`liqlik borligiga ishonishadi va yaqinda Morgellons tadqiqot jamg`armasi boshqa 3 bakterial patogen bilan aloqani aniqladi. Agar odamda sekin shifo topadigan teri lezyonlar va teri ostidagi qurtlarni emaklash hissi bo`lsa shifokor teri lezyonlarida tolali materialni topsa, u namunali keying tahlil qilish uchun laboratoriyaga yuborish mumkin. Morgellon kasalligi-bu parazitlar yoki begona jismlarning bizning terimiz ichida yoki tashqarisida harakat qiladi , degan ishonchga olib keladigan xayoliy kasallikdir. Morgellon kasalligi kam ma`lum bo`lgan kasallik bo`lib, ko`pincha o`ziga xos bo`lmagan teri, asabiy va psixiatrik alomatlari bilan bog`liq. Ba`zan “morgellonla” deb ataladi .Ushbu kasallikka chalingan odamlarda hipotiroidizm rivojlanish xavfli yuqori. Morgellon kasalligi bilan og`rigan odamlarning eng xarakterli alomati teridan chiqib ketadigan tolalar yoki iplar hissi bo`lib ular ko`pincha zararlangan shaxslar shifokorlarni tekshirish uchun ushbu tolalar to`plamiga ko`rsatish mumkin yoki ular bu jarohatlarni cimbiz bilan faol ravishda tishlashlari mumkin .Ko`pgina bemorlarda og`riqli teri yaralari bor, ular tolalar ta`siridan kelib chiqqan deb hisoblashadi, lekin aslida yirtilib ketish natijasidir. Morgellons kasalligini tashxislash turli n xil test jarayonlarini o`z ichiga olish mumkin. Oxir-oqibat, shifokorlar fizik tekshiruv va laboratoriya tekshiruvlari natijalariga ko`ra tashxis qo`yiladi. Biroq ,bemorlarning ishonchli sog`liq saqlash mutaxassisi bilan ishlashi juda muhim, ayniqsa ular Morgellons kasalligi kabi yaxshi tushunilmagan tibbiy holatga ega bo`lsa. Hozirda Morgellons kasalligini davolaydigan standart davolash usullari yoki formulalari mavjud emas. internetda bu holatlarning davolash uchun ko`plab uy usullari mavjud, ammo ular xavfsiz yoki samarali bo`lmasligi mumkin.

Men bunday kasalliklarni uyda ya`ni uy usullarida davolashni afzal ko`rmayman. Sababi bu kasalliklar juda jiddiy va albatta shifokorlar nazoratida davolanish kerak, ular yuqumli bo`lmasada ham uy sharoitni ko`p qulayliklar y`oq. Bunday kasalliklar to`g`risida ko`plab olimlar va shifokorlar o`z fikrlari to`g`risida maqola va ilmiy kitoblar yozishgan va tadqiqotlar olib borgan. Misol uchun: Dr. Randy W.S McDaniel tomonidan yozilgan “Morgellons: a disease or a delusion?” kitobi “1. Morgellons sindromining tabiati va uni atroflicha o`rganishga bag`ishlangan. Kitobda muallif, kasallikning klinik ko`rinishlari, bemorlarning tajribalari va mavjud ilmiy izlanishlarni tahlil qiladi”, “2. Morgellons kasalligining psixologik va nevrologik jihatlari, shungdek kasallikning ruhiy salomatlik bilan bog`liqligi haqida muhokamalar mavjud. Hecker bu kasallikning aslida mavjud

emasligi yoki unda psixoz va bshohqa ruhiy holatlarning ta'siri bo'lishi mumkin". Men tibbiyotga qiziqadigon yoshlarga bunday kitoblarni o'qishni tavsiya qilaman va albatta bunday kasalliklarni o'rganish kerak deb bilaman. Nafaqat chet el davlatlarda balki O'zbekistonda ham shunday kasalliklar ham uchrab turadi va albatta bu kasaliklarga O'zbekistonlik shifokorlar o'z bilimlari bilan shu kasaldan azob chekayotgan bemorga qo'ldan kegancha kasallikni oldini olishmoqda. Shu kasalliklardan yana bittasi bu Progeriya kasalligi bu ham shundan kam uchraydiganlar royxatiga kiradi. Progeriya yoki Hayflick sindromi, juda kam uchraydigan genetic kasallik bo'lib, odamlarda tez qarish jarayoni keltirib chiqaradi. Ushbu kasallik asosan 1 millionlab 20mingacha odamda uchraydi va ko'pincha bolalarda paydo bo'ladi. Progeriyaning sababi LMNA lami A genidagi mutatsiyalardir. Bu gen, hujayra yadrosining tuzilishini va mustahkamligini ta'minlaydigan lamin A oqsilini kodlaydi. Ushbu mutatsiya natijasida, hujayralar normlar ishlay olmaydi va tezda qarish jarayonini boshlaydi.

Bolalar progeriyasi tug'ma bo'lishi mumkin bo'lsa-da, ko'pchilik bemorlar hayotining 2 yoki 3-yillarida klinik belgilar namoyonqiladi. Bolaning o'sishi keskin sekinlashadi, dermada, teri osti to'qimalarda, ayniqsa yuz va oyoq-qo'llarda atrofik o'zgarishlar qayd etiladi. Teri yupqa bo'ladi quriydi, ajinlar paydo bo'ladi, tanada sklerodermaga o'xshash yaraalr, giperpigmentatsiya joylari paydo bo'lishi mumkin.

Tomirlar yupqalashgan teri orqali ko'rina boshlaydi. Bemorning tashqi ko'rinishi: katta bosh, bo'rtgan peshona tumshuq shaklidagi burun bilan kichik "qush" yuzaga chiqib turadi, pastki jag'I kam rivojlangan.

"1886-yilda ingliz shifokori Jonatan Xatchinson birinchi marta olti yoshlik bolada teri va uning hosilari atrofiyasi bilan namoyon bo'lgan erta qarish holatini tasvirlab berdi. Keyinchalik uning vatandoshi va hamkasbi Xastings Gilford ushbu patologiyaning klinik va morfologik xususiyatlarini o'rganib, "progeriya" atamasini kiritdi"3. Dunyoda 350dan ortiq progeriya holatlari qayd etilgan, jumlada, 13yoshli Adaliya Rouz, 18yoshli Ashanti Elliott-Smit va Xebron shahridan 22 yoshli Ontalametse Phalatse qayd etilgan.

Men bunday kasalliklarga chalingan bolalar bilan muloqotda bo'lganda ehtiyotkorlik, hushmuomilalik bilan bo'lishni tavsiya qilaman, chunki bular ruhan charchagan va uyatchan bo'ladi. Ko'p kuzatilgan hodisalardan biri; bunday bolalar ommani yani aholi ko'p yerlarga bo'ra olmaydi chunki, ba'zgi insonlar ularni masqara qila bo'shledi, ularni yerga ura bo'shlashadi. Ularni doimo maqtash kerak va ilmga yo'lantirish kerak bo'ladi. Shunday kasallikga chalingan bola O'zbekistonning Andijon viloyatida ham aniqlangan va doimo shifokorlar nazoratida bo'ladi.

Hozirgi kunda progeriya kasalligini davolashning maxsus usullari mavjud emas. Biroq, belgilarga qarshi turli xil terapiyalar qo'llanishi mumkin. Misol uchun: fizik terapiya harakatlarni yaxshilash va mushak kuchini oshirishga yordam beradi, dori-

darmonlar yana bir qator dori vositalari, masalan, statinlar va boshqa yurakni himoya qiluvchi dori vositalari, yurak kasalliklarini oldini olishda foydali bo'lishi mumkin. Huddi shunday kasalliklardan biri Kuru kasalligi, bu kasallik ham dunyoda kam uchraydi va hali ham davosi to'pilmagan. Kuru birinchi marta 1950-yillarning boshida avstraliyalik ofitserlarning Papua-Yangi Gvineyaning Sharqiy tog'larida patrullik qilayotganiga rasmiy hisobotlarida tasvirlangan. Ba'zi norasmiy ma'lumotlarga ko'ra, quri mintaqada 1910-yildayoq paydo bo'lgan. 1951-yilda Artur Keri Papua-Yangi Gvineyadagi Fore qabilalariga ta'sir qiluvchi yangi kasallikni tasvirlash uchun hisobotida birinchi bo'lib kuru atamasini ishlatgan. Keri o'z hisobotida quri asosan homilador ayollarga ta'sir qilganini va oxir – oqibat ularni o'ldirishini ta'kidlaydi.

Kuru asosan Fore xalqi va ular bilan turmush qurgan odamlar orasida mahalliy lashtirilgan. Fore xalqi "marhumning jasadini tirik qarindoshlari tanasiga kiritish va shu tariqa marhumning ruhini ozod qilishga yordam berish" uchun o'limdan keyin o'z oila a'zolarining tana qismlarini marosim payti pishirgan va yeyishgan. Miya yuqumli prionga boy ogan bo'lganligi sababli, miyani iste'mol qilgan ayollar va bolalar asosan mushaklarni iste'mol qiladigan erkaklarga qaraganda ko'proq bo'lishadi." 1960-yillarning boshlarida inson go'shtini iste'mol qilishni to'xtatgandan keyin ham kasallik 10 yildan 50 yilgacha davom etgan uzun inkubatsiya davri tufayli o'zini namoyon qilishda davom etdi"4." Epidemiyani nihoyat yarim asrdan keyin keskin pasayib ketdi, 1957-yilda yiliga 200 ta o'lim holatini bo'lgan. Manbalarda qurining oxirgi ma'lum qurboni 2005 yoki 2009-yilda vafot etganini qayd etilgan. 2010-yildan beri o'lim kuzatilmadi"5.

Yuqumli agent prion PrP deb ataladigan xost tomonida kodlangan oqsilning noto'g'ri shaklidir. Prionning ikkita shakli PrP, odatda buklangan oqsil va PrP, kasallikni keltirib chiqaradigan noto'g'ri burmalangan shaklga ega. Ikki shakl aminokislotalar ketma – ketligida farq qilmaydi; ammo patogen PrP izoformasi PrP normal shaklidan ikkilamchi va uchinchi darajali tuzilishi bilan farq qiladi.

2009-yilda Tibbiy tadqiqotlar kengashi tadqiqotchilari Papua-Yangi Gvineya populyatsiyasida kuruga kuchli qarshilik ko'rsatadigan tabiiy prion oqsili variantini topdilar. 1996-yilda boshlangan tadqiqotda, tadqiqotchilar Sharqiy tog'lar va uning atrofidagi hududlarning aholisidan 3000 dan ortiq odamni tekshirdilar va G127 polimorfizmi noto'g'ri ma'no mutatsiyasining natijasidir va geografik jihatda quru epidemiyasi eng ko'p tarqalgan mintaqalar bilan cheklangan. Tadqiqotchilarning fikricha, PrnP varianti yaqinda paydo bo'lgan, eng so'nggi umumiy ajdod 10 avlod oldin yashagan. "Prusiner prionlarni infektsiyali oqsillar sifatida tasvirlaydi, ular hujayralardagi sog'lom oqsillarni o'zgartirib, kasalliklarni keltirib chiqaradi. Brown Prusinerning laboratoriyadi eksperimentlari va Kuru kasalligini o'rganishdagi

muffaqiyatlari haqida ma'lumot beradi, shuningdek, bu kasallikni o'rganish orqali prionlar haqidagi bilimlar qanday kengayganini bayon etadi. “

FOYDALANILGAN ADABOYOTLAR RO'YXATI

1. J.Paul.s.a.h.b hecker kitobi “the disease that does not exist ?
2. a disease or a delusion? Create space independent publishing platformda nashriyoti jami: 195 bet
3. “Kuru and cannibals: a medical history” kitobidan kaliforniya universitedida nashr qilingan jami: 302 bet
4. Bichell, rae ellen “when people ate people, a strange disease emerged” 2006- yil
5. Rence, sarah “ here is what happens to your body when you eat human meat” 7-sentabr 2016-yil